

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 259 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILİYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	



INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI

Muzaffar Raximov

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Email: muzaffar_raximov1985@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada inson kapitalini rivojlantirish va raqamli transformatsiya jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, raqamli iqtisodiyot uchun intellektual hamda kadrlar bazasini shakllantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar tahlil qilingan. Unda shaxsning intellektual, kasbiy va ijtimoiy salohiyatining uyg'unligi bilimlar iqtisodiyotini barpo etishda tizim yaratuvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlangan. Shuningdek, raqamli transformatsiya faqat texnologiyalarni modernizatsiya qilishni emas, balki inson kapitalining yangi iqtisodiy modellarga integratsiyalashuvini ta'minlaydigan institutsional muhitni yangilash zarurligini ham ko'rsatadi. Shu tariqa, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va innovatsion fikrlashni qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiy tizimlarning unumdorligi, barqarorligi hamda global raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, intellektual resurslar, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, raqamli kompetensiyalar.

Abstract: The article analyzes the relationship between the development of human capital and the processes of digital transformation, as well as the mechanisms that contribute to the formation of an intellectual and personnel base for the digital economy, showing that the combination of an individual's intellectual, professional and social potential serves as a system-forming factor in building a knowledge economy. It is emphasized that digital transformation requires not only the modernization of technologies, but also the renewal of the institutional environment that ensures the integration of human capital into new economic models. Thus, the development of digital skills and support for innovative thinking will be the basis for increasing the productivity, stability and global competitiveness of national economic systems.

Key words: human capital, digital transformation, digital economy, innovation, intellectual resources, competitiveness, sustainable development, digital competencies.

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь развития человеческого капитала с процессами цифровой трансформации, а также механизмы, способствующие формированию интеллектуально-кадровой базы цифровой экономики, показывая, что сочетание интеллектуального, профессионального и социального потенциала личности выступает системообразующим фактором построения экономики знаний. Подчеркивается, что цифровая трансформация требует не только модернизации технологий, но и обновления институциональной среды, обеспечивающей интеграцию человеческого капитала в новые экономические модели. Таким образом, развитие цифровых навыков и поддержка инновационного мышления станут основой повышения производительности, устойчивости и глобальной конкурентоспособности национальных экономических систем.

Ключевые слова: человеческий капитал, цифровая трансформация, цифровая экономика, инновации, интеллектуальные ресурсы, конкурентоспособность, устойчивое развитие, цифровые компетенции.

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oluvchi jadal raqamlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyot murakkab va moslashuvchan tizim bo'lib, tovarlarni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda iste'mol qilishda an'anaviy yondashuvlarni tubdan o'zgartiruvchi raqamli texnologiyalarni joriy etishga qodir. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil inson kapitalidir — ya'ni, insonning iqtisodiy qiymat yaratish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va salomatlik majmui.

Ushbu maqolada inson kapitalining sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi hamda ushbu o'zaro ta'sirning institutsional, ta'lim va innovatsion jihatlarini yoritiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D. Nort o'zining fundamental asarida institutsional tahlilning nazariy asoslarini yaratgan hamda innovatsiyalar bo'shlig'ida emas, balki institutsional cheklovlar va rag'batlar doirasida shakllanishini ta'kidlagan [1]. Uning yondashuvi raqamli texnologiyalar va inson kapitalining ta'lim, mehnat, huquq va fan kabi institutsional tizimlar doirasida qanday ishlashini tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Z. T. Bobokalonov institutsional yondashuvni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib, raqamli iqtisodiyotning huquqiy va tashkiliy asoslari yetarli darajada rivojlanmagan hollarda, hatto malakali kadrlar mavjud bo'lsa ham, innovatsion ishlab chiqarish jarayonlari sekinlashishini asoslab beradi [2, 96-bet]. U turli sohalar o'rtasida huquqiy modernizatsiya va institutsional uyg'unlashuv zarurligini alohida ta'kidlaydi.

O. B. Grineva o'z tadqiqotida korxonalarning raqamli yetuklik darajasi bilan ularning innovatsion xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qiladi [3, 61-bet]. Muallif innovatsion faoliyatni baholash mezonlari sifatida raqamli yechimlarni joriy etish tezligi, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga ajratilgan xarajatlar ulushi hamda ro'yxatdan o'tgan intellektual mulk obyektlari soni kabi miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalanishni taklif etadi.

V. N. Ivanov kichik va o'rta korxonalarni raqamli tezlashtirish sharoitida innovatsiyalar rivojining asosiy tashuvchisi deb hisoblaydi [4, 83-bet].

Sh. B. Qodirov esa inson kapitaliga investitsiyalar, raqamli ko'nikmalar va innovatsion faoliyat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, ushbu ilmiy yo'nalishni yanada to'ldiradi [5, 148-bet]. U qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish va katta yoshdagi aholining raqamli savodxonligini oshirish zarurligini ta'kidlab, bu jarayonni umrbod ta'limni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tendensiyalarni aks ettiruvchi muhim institutsional me'yor sifatida talqin etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada inson kapitalini rivojlantirish va raqamli transformatsiya jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, raqamli iqtisodiyot uchun intellektual hamda kadrlar bazasini shakllantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar tahlil qilingan. Tadqiqot maqsadiga erishish jarayonida adabiyotlar qiyosiy tahlili, farazni asoslash, tizimli va mantiqiy tahlil, shuningdek, qiyosiy yondashuv kabi ilmiy usullardan samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Inson kapitali" tushunchasi iqtisodiy fanda XX-asrning ikkinchi yarmida T. Shults [6] va G. Bekker [7] tadqiqotlarida shakllangan. Ular ta'lim, sog'liqni saqlash hamda kasb-hunar tayyorgarligiga yo'naltirilgan investitsiyalarni mehnat unumdorligi va jamiyat farovonligini oshiruvchi kapital qo'yilmalari sifatida talqin qilganlar.

Mazkur kontsepsiya zamonaviy talqinda yanada kengayib, insonning kognitiv qobiliyatlarini, raqamli savodxonlik darajasini, innovatsion salohiyatini va hayot davomida o'rganish qobiliyatini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va noaniqlik sharoitida ishlash qobiliyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Texnologik yangilanish va o'zgarishlar tezligi yuqori bo'lgan zamonda inson kapitali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylanadi [7, 65-bet].

Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi — bu raqamli texnologiyalar ta'sirida iqtisodiy agentlar faoliyatining tubdan o'zgarishi jarayonidir. U ishlab chiqarish, logistika, menejment, marketing, moliyaviy oqimlar va iste'molchilar bilan o'zaro aloqalarni qamrab oladi. Raqamlashtirish natijasida yangi biznes modellari — to'lov ekotizimlari, platforma bozorlari, aqlli kontraktlar va boshqa innovatsion shakllar paydo bo'lmoqda.

V. N. Ivanovning ta'kidlashicha, raqamlashtirish nafaqat texnologik asosni, balki iqtisodiyotning institutsional tuzilmasini ham o'zgartirib, bilim iqtisodiyotiga o'tish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi [4, 79-bet]. Ushbu o'tishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi raqamli muhitda bilimlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash qobiliyatiga ega bo'lgan xodimlardir.

Raqamli transformatsiyaning samaradorligi bevosita inson kapitali sifatiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xodimlarning raqamli kompetensiyalarining yuqori darajasi innovatsion echimlarni muvaffaqiyatli tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish va mahsulot hamda xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi [3; 5]. Shu bilan birga, fanlararo fikrlash, ijodiy yondashuv va axborot oqimini boshqarish qobiliyati kabi adaptiv, transversal ko'nikmalar mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega.

Postindustrial rivojlanish sharoitida asosiy e'tibor rasmiy bilimlardan nostandart muammolarni hal qilish va o'rganish qobiliyatiga o'tmoqda. Natijada, inson kapitali raqamli iqtisodiyotda nafaqat resurs, balki strategik aktiv sifatida qaraladi. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar texnologik yetakchilik va barqaror o'sish uchun zamin yaratuvchi ilg'or rivojlanish shakli sifatida talqin etiladi.



Inson kapitalini shakllantirishning asosiy mexanizmlaridan biri — ta'lim tizimi. Raqamli transformatsiya sharoitida u mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashish bosimini his qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ko'nikmalari, analitik fikrlash, katta ma'lumotlar bilan ishlash hamda kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislarni tayyorlash zarurati ta'lim dasturlari va pedagogik yondashuvlarni yangilashni taqozo etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish yo'lida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, masofaviy ta'lim, raqamli platformalar va adaptiv o'quv tizimlarini joriy etishni nazarda tutuvchi "O'zbekiston raqamli ta'limi – 2030" loyihasi ishlab chiqilgan. Biroq H. H. Abduraxmonovning fikricha, yetarli raqamli kompetensiyaga ega o'qituvchilarning yetishmasligi o'quvchilarda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda [8, 217-bet].

Raqamli transformatsiya nafaqat yuqori sifatli inson kapitalini, balki uni samarali rivojlantirish va qo'llashni ta'minlaydigan institutsional muhitni ham talab qiladi. Shu ma'noda, davlat siyosati barcha bosqichlarda — maktab ta'limidan boshlab, kattalarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashgacha — raqamli ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilishi lozim.

Bunda raqamli kompetensiyalarni tan olish va sertifikatlash tizimini yaratish, xususiyl sektorini xodimlarni o'qitishga sarmoya kiritishga rag'batlantirish hamda bilim almashish va mobillikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish va raqamlashtirish natijasida malakasi o'z ahamiyatini yo'qotayotgan ishchilarni ijtimoiy himoya qilishning institutsional kafolatlarini ta'minlash ham zarurdir.

O'zbekistonda institutsional bazani, jumladan, Milliy malaka tizimini rivojlantirish orqali modernizatsiya qilish choralari ko'rilmoqda. Biroq Z. T. Bobokalonov ta'kidlaganidek, ushbu tizimning samaradorligi ko'p jihatdan ish beruvchilar hamda ilmiy va ta'lim hamjamiyatlari o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liqdir [2, 93-bet].

Institutsional yangilanishning zamonaviy tendensiyalari moslashuvchan, raqamli va innovatsion yechimlarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Bunday yangilanishlar orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

ta'lim va sertifikatlashtirish uchun raqamli platformalar – ommaviy masofaviy ta'lim uchun infratuzilmani yaratish;

bandlikning platformali modellari – mehnat munosabatlarini tartibga solish hamda ishchilar huquqlarini himoya qilishning yangi shakllarini joriy etish;

mikrosertifikatlashtirish va modulli ta'lim traektoriyalari – mehnat bozoridagi o'zgarishlarga tez moslashish imkonini beruvchi mexanizmlar;

ta'lim va kadrlar tayyorlashda davlat–xususiy sheriklik – ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlash.

O. B. Grinevaning fikricha, bunday institutsional innovatsiyalar inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshiradi va texnologik o'zgarishlarga moslashish jarayonlarini tezlashtiradi [3, 59-bet]. Inson kapitalining rivojlanishi bevosita innovatsion faollikning o'sishi bilan bog'liq. Raqamli hamda kognitiv qobiliyatlarga ega ishchilar mavjud texnologiyalardan samarali foydalanish bilan birga, ularni takomillashtirish va yangi mahsulotlar yaratishda ham faol ishtirok etadilar. Zamonaviy iqtisodiyot endi texnologiyalarni nusxalashdan ularni rivojlantirish bosqichiga o'tmoqda, bu esa inson kapitalining innovatsion salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir.

O. B. Grineva ta'kidlaganidek, korxonalarning innovatsion faollik darajasi inson resurslari sifati va ularning raqamli yetuklik darajasi bilan bevosita bog'liq [3, 58-bet]. Shu bois inson kapitali innovatsiyalar uchun katalizator hamda raqamli transformatsiyaning eng muhim resursi hisoblanadi.

Innovatsion salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish samarali institutsional muhit mavjud bo'lgandagina mumkin, bunda:

- raqamli va fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan moslashuvchan ta'lim tizimi;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;
- intellektual mulkni himoya qiluvchi qonunchilik bazasi;
- sertifikatlashtirish va malakalarni tan olishning shaffof tartiblari;
- biznesni raqamlashtirish uchun soliq va tartibga soluvchi imtiyozlar mavjud bo'lishi zarur.

Joriy yilning may oyida Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, YUNESKO va Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi hamkorligida o'tkazilgan "Milliy malaka tizimini rivojlantirishning joriy holati va istiqbolli vazifalar" mavzusidagi I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya milliy malaka tizimi rivojida muhim platforma bo'lib, global tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlarga muvofiqlashish va O'zbekistonning inson kapitali salohiyatini oshirish yo'lida muhim qadamlardan biri sifatida baholandi [9]. Biroq Sh. B. Qodirovning ta'kidlashicha, xususiyl sektorning faol ishtirokisiz hamda xalqaro tajribalarni amaliy integratsiya etmasdan, bunday islohotlar rasmiy tusda qolib ketishi mumkin [5, 145-bet].

Raqamli iqtisodiyotda innovatsion faoliyat ikki strategik omil – inson kapitali va raqamli texnologiyalar kesishmasida shakllanadi. Ularning samarali o'zaro ta'siri milliy iqtisodiyotlarning yangi texnologik va bozor



sharoitlariga moslashish, raqobat ustunliklarini yaratish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash qobiliyatini belgilaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori innovatsion faollikka erishish uchun nafaqat malakali kadrlar va rivojlangan texnologik infratuzilma, balki innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi izchil hamkorlikni ta'minlovchi institutsional muhit ham zarur. Davlat, biznes va ilmiy hamjamiyatning tizimli yondashuvi va muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlari sharoitidagina inson kapitali va raqamli yechimlar sinergiyasi asosida innovatsion salohiyatni barqaror oshirish mumkin.

Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalining o'ta muhim o'ni sharoitida uning yanada samarali rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Mamlakatda ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish va sifatli bilim olish imkoniyatlarini barcha hududlarda teng darajada ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Kattalar orasida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va ularni zamonaviy kasbiy yo'nalishlarga yo'naltirish orqali inson resurslari salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, ta'lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish yo'lida tizimli yangilanishlar olib borilmoqda, bu esa raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlashni jadallashtiradi. Davlat, biznes va ta'lim sohasi o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarining mustahkamlanishi esa inson kapitalini rivojlantirishning muhim tayanch omiliga aylanmoqda.

O'zbekistonda mehnat bozorining tarkibiy xususiyatlari va xalqaro tajriba almashinuvi inson kapitalining sifat jihatidan o'sishiga yangi turtki bermoqda. Migratsiya jarayonlari esa o'z navbatida xalqaro mehnat standartlarini o'zlashtirish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va bilimlar almashinuvi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitali salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun ta'lim tizimini raqamli va "soft" ko'nikmalarga yo'naltirilgan holda modernizatsiya qilish, moslashuvchan qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish, malaka va mikrosertifikatlashtirish institutlarini rivojlantirish muhim yo'nalishlardir. Shu bilan birga, xususiy sektorning inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarini rag'batlantirish va raqamlashtirish jarayonlarini institutsional qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotda barqaror o'sishini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson kapitali iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasining ajralmas tarkibiy qismidir. O'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va innovatsiyalar yaratishga qodir malakali kadrlarsiz barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin emas. Raqamli transformatsiya esa, o'z navbatida, ta'lim tizimiga, institutsional tartibga solish mexanizmlariga hamda inson resurslarini rivojlantirish strategiyasiga yangicha yondashuvni talab qiladi. Shu bois inson kapitalini rivojlantirish siyosati va raqamli transformatsiya jarayonining integratsiyasi O'zbekiston uchun milliy ijtimoiy-iqtisodiy strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги «Начала», 1997. – 180 с.
2. Bobokalonov Z.T. O'zbekistonda raqamlashtirish va innovatsiyalar uchun institutsional shart-sharoitlar // Iqtisodiyot va moliya (O'zbekiston). – 2021. – №10. – С. 90–96.
3. Гринёва О.Б. Влияние цифровых трансформаций на инновационную активность предприятий // Управленческие науки. – 2023. – №5. – С. 55–61.
4. Иванов В.Н. Цифровая трансформация и малый бизнес: институциональные барьеры и драйверы инноваций // Экономическая наука современной России. – 2021. – №1. – С. 74–83.
5. Qodirov Sh.B. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – №2. – С. 140–148.
6. Schulz T. Investment in Human Capital // American Economic Review. – 1961, March – № 1. 14
7. Becker G. S. Investment in Human Capital: A. Theoretical Analysis // Journal of Political Economy. Supplement. Oct., 1962
8. Abdurahmonov X.H. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning zamonaviy muammolari va raqamlashtirish // Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti axborotnomasi. – 2022. – №4. – С. 215–223.
9. <https://mmtri.uz/milliy-malaka-tizimini-rivojlantirishning-joriy-holati-va-istiqbolli-vazifalar-mavzusidagi-i-xalqaro-ilmiy-amaliy-konferensiya/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
